

Sattarova Nargiza Oblanazarovna

**HOZIRGI  
O'ZBEK ADABIY  
TILI  
LEKSIKOLOGIYA**



80/84.  
9.93.

SATTAROVA NARGIZA OBLANAZAROVNA

# HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI LEKSIKOLOGIYA

o'quv qo'llama

OZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TAILIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

Toshkent  
"METODIST NASHRIYOTI"

2023 OZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TAILIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI  
2-FILIALI

UDK: 373.16  
BBK: 74.200.526  
S 95

## KIRISH

**Sattarova Nargiza Oblanazarovna**  
**Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya. O'quv qo'llanma.**  
**- Toshkent: "METODIST NASHRIYOTI", 2023, 160 b.**

*O'quv qo'llanma O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi bakalavr talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv fanining namunaviy dasturi asosida tayyorlangan.*

*O'quv qo'llanmada "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani dasturidagi ikkinchi modul "Leksikologiya" qismi yoritilgan.*

*O'quv qo'llanma ma'ruza mashg'ulotlari, mavzuga doir topshiriqlar, glossariy, test topshiriqlaridan tashkil topgan*

### **Taqritzchilar:**

**Z. Pardayev**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**F. Usmonov**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**B. T. Qodirova**

*Pedagogik fanlari bo'yicha falsafa doktor (PhD)*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrig'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

**ISBN 978-9943-9629-2-7**

© Sattarova N., 2023.  
© "METODIST NASHRIYOTI", 2023.

Bugungi kunda jamiyat oldida ommaviy savdخورlikni ta'minlash, adabiy nutq me'yorlarini ommalashtirish, xalqning yorqin yodgorliklarini nashr etish va yoyish, ta'limni zamonaviy usullar asosida yo'lga qo'yish muhim vazifalardan hisoblanadi.

XX asrning oxirgi choragida davr, maqsad va vazifalar tubdan o'zgarib, tishunoslik, ijtimoiy ehtiyoj natijasida o'laroq, sistem-struktur tahtli usullariga o'tdi, o'zbek tilida lison va nutqni izchil farqlash asosida tilmizning lisoniy sistemasi - lisoniy birliklari va munosabatlarini tadqiq qilish - lisoniy imkoniyatlarni ochish rivojlandi. Alohida ta'kidlash kerakki, o'zbek tili strukturasi ta'limni adabiy til birliklari asosida olib borilishi ham mantiqan to'g'ri. Zero, har qanday lisoniy strukturada til birliklarining adabiy variantlari asosida tushuntirilishi ta'lim oluvchilarning turli sheva vakillari ekanligidan kelib chiqadi.

O'quv qo'llanmada A. Abduqazizov, A. Nurmonov, R. Rasulov, H. Mengliyev, E. Begmatov, G. Nematova, Sh. Bobojonov, O. Bozorov, I. Madratimov, N. Mahmudov, S. Muxamedova, M. Narziyeva, H. Nematov, Sh. Orifjonova, Sh. Rahmatullayev, R. Safarova, H. Qilichev, S. G'iyosov, N. Shirinova, Z. Yunusova, N. Vohidova kabi tishunoslarning tadqiqotlariga tayanildi. O'zbek tishunosligining yetuk namoyandalari va takomillashtiruvchilari F. Abdullayev, G. Abdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiyev, S. Ibrohimov, F. Kamolov, N. Karimov, A. Kononov, M. Mirtojiyev, M. Mirzayev, A. Muxtorov, H. Qo'ng'urov, I. Rasulov, U. Tursunov, S. Usmonov, Sh. Shoabdurahmonov kablarning darslik va qo'llanmalariga ham tayanildi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda oliy maktabda ta'lim tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish, talabalar uchun yangi, zamonaviy o'quv dasturlari, darslik

va qo'llanmalar yaratish va ular bilan o'tkaziladigan nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishni hozirgi davrning dolzarb masalalari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy maktab ilmiy jamoalari oldiga qo'yilayotgan yuksak talablarning boisi ham shundadir. Oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilshunosligi fani va uning barcha sohalarini, qaynaganda, "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursini ana shu talablar darajasida o'qitish, buning uchun mavjud darslik va qo'llanmalarni yangi mazmun asosida qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ilmoqda. Chunki ular nazariy jihatdan eskirmagan bo'lsa ham, darslik va qo'llanmalar matnlaridagi iste'moldan chiqqan ayrim so'z va iboralar, atamalarni almashtirish zarurati paydo bo'ldi.

O'quv qo'llanma 60111400-O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi bakalavr talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv fanining namunaviy dasturi asosida tayyorlangan. O'quv qo'llamada "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani dasturidagi ikkinchi modul "Leksikologiya" qismini yoritishga harakat qilingan va u ma'ruza mashg'ulotlari, mavzuga doir topshiriqlar, glossariy, test bankidan tashkil topgan.

## I BOB. LEKSIKOLOGIYA

### LEKSIKOLOGIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

**Tayanch so'z va iboralar:** leksikologiya, til, lison, nutq, lug'at, so'z, leksika, leksik-semantik sath, morfema, leksema, lisoniy sath, morfemiy sath, tilshunoslik bo'limlari

Leksikologiya - tilning lug'at tarkibini o'rganadigan tilshunoslik bo'limidir. Birinchi marta tilning leksik tarkibini o'rganish foyalari Fransiyada (Fransuz akademiyasi) tug'ildi. 19-asrda mustaqil ilmiy fan sifatida, rus tilshunosligida esa akademik fan sifatida o'rganila boshladi. Tilshunoslikning leksikani o'rganuvchi bo'limi, tilning lug'at "tarkibi haqidagi fan" leksikologiya deb ataladi. Tilning lug'at tarkibi va uni tashkil etuvchi so'zlar bir qator umumiy xususiyatlarga egaligi bilan saratirlanadi. Leksikologiya leksikani xuddi shu umumiy xususiyatlari nuqtai nazaridan o'rganadi. Bu xususiyatlar quyidagilar:

1. Avvalo, lug'at tarkibini tashkil etuvchi har qanday so'z ma'noega ega bo'ladi. Ana shu ma'nosi nuqtai nazaridan so'zlar o'ziga xosliklarga ega. So'zning ma'nosi (semantikasi) va u bilan bog'liq masalalar leksikologiyadagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Leksikaga oid bu masala bilan leksikologiyaning omumastologiya bo'limi shug'ullanadi.

2. Har qanday tilning tarqiqiyotida uning eng o'zgaruvchan, eng tez harakatdagi qismi leksikasidir. Til tarqiqiyoti jarayonida lug'at tarkibi yangi-yangi so'zlar hisobga boyib borish bilan birga, undagi ayrim so'zlar eskiradi, shuningdek, iste'moldan chiqib boradi. Demak, lug'at tarkibi avvaldan o'zlashib kelgan va hozirda iste'moldagi so'zlar bilan birga nisbatan yangi so'zlar va eskirgan

so'zlarga egalligi bilan ham xarakterlanadi. Leksikologiyada leksikaning ana shu tomoni ham o'rganiladi.

3. Lug'at tarkibidagi so'zlar iste'moldagi darajasi bu nuqtai nazardan umumiylikka yoki chegaralanganlikka egalligi bilan ham o'zaro farqlanadi. Ma'lum so'zlar umumxalq iste'molida bo'lsa (masalan, kitob, inson, katta, yugurmoq va b.), ayrim so'zlarning iste'mol doirasi ma'lum jihatdan chegaralangan bo'ladi. Masalan, dialektal so'zlar hududiy jihatdan chegaralangan bo'ladi (sas - tovush, istamoq - qidirmoq, bolish - yostiq, eshik - hovli, uy va b.); atamalar ma'lum kasb-hunar sohasidagi kishilar nutqida qo'llanish bilan chegaralangan bo'ladi. Masalan, urg'u, leksika, qo'shimcha so'zlari - tishunoslikka oid atamalar; konus, piramida, sinus - geometriyaga oid atamalar; kultivatsiya, barona, chekanka - qishloq xo'jaligiga oid atamalar; voleybol, suzish, nokaut - sportga oid atamalar va h.). Leksikologiya lug'at tarkibini ham o'rganadi.

4. Tilning lug'at tarkibidagi so'zlar nutqqa, uslubga bo'lgan munosabatlariga ko'ra ham o'zaro farqlanadilar. Ma'lum so'zlar nutq turlariga, uslubga (stilga) betaraf (neytral) munosabatda bo'lsa (quchoq, bechora, osmon, ichmoq va b.), ayrim so'zlar nutq uslubining ma'lum turiga xos bo'ladi (og'ush - badiiy uslubga xos, boyoqish - oddiy nutqqa xos, falak - poetik uslubga xos, adib - kitobiy uslubga xos va h.). Leksikologiyada so'zlarning ana shu xususiyatlari ham o'rganiladi.

5. Har bir so'z tovush qiyofasi va ma'nosiga ega, ya'ni shakl va mazmuniga ega. Lug'at tarkibidagi so'zlar ana shu shakl va mazmuni jihatidan turlicha munosabatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, chaqqon, epchil, chechan, abjir, chapdast so'zlarning shakli har xil, ma'nosi bir xil (sinonim); ko'k (frang), ko'k (osmon), ko'k (maysa, ko'kat) so'zlarning shakli bir xil, ma'nosi har xil (omonim) va h. Leksikologiyada so'zlar o'zaro ana shunday munosabatlari nuqtai nazardan ham o'rganiladi. Leksikologiya so'zi grekcha lexicos - "lug'aviy belgi" va logos - "bilim" so'zlaridan olingan bo'lib,

ishunoslikning so'z va so'zga teng lug'aviy birliklar, til boyligi haqida ba'is yurituvchi sohasidir. Leksikologiyaning obyekti - tilning lug'at boyligi va uning asosiy birligi bo'lgan so'z. Predmeti: a) so'z va leksema munosabatlari, leksemaning lug'aviy birlik sifatidagi belgi-xususiyatlari, lisoniy va nolisoniy omillarga munosabati muammolari bilan shug'ullanish; b) lug'at boyligining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini, tilning boshqa sathlari (fonetik sath, grammatik sath) bilan aloqalarini, shuningdek til leksikasidagi jarayonlarda iloniy va nolisoniy omillar ishtirokini tadqiq qilish.

Semasiologiya - semantikaning ma'no ifoda tekisligidan mazmun tekisligiga qadar o'rganiladigan bo'lim bo'lib, "bu so'z yoki so'z birlikasi nimani anglatadi?" kabi savolga javob berish bilan shug'ullanadi. Semantikaga bunday yondashuv tovushli nutqni iborat etuvchi yoki o'quvchining nuqtai nazarini aks ettiradi va lug'atning asosiy kategorik munosabatlardan biri - polisemiya (he p ma'no) mazmunini ochib beruvchi tushuntirish lug'atlarining asosiy maqsadiga mos keladi.

Onomasiologiya - semantikaning ma'noqa qarama-qarshi yo'nalishda o'rganiladigan jihati bo'lib, semasiologiyaga qarama-qarshi yo'nalishda, mazmun tekisligidan ifoda tekisligiga o'tish masalalari bilan shug'ullanadi. Semasiologiyadan farqli o'laroq, bu yerda yana bir savol tug'iladi: "Bu ma'noni, mazmunni ifodalash uchun qanday so'zlar yoki so'z birlikmalari mavjud?". Masalan, fonologik harakatni ifodalovchi o'zbek tilida qanday so'zlar bor? Qo'shilib tushunchasi qanday so'z va iboralar yordamida ifodalanadi? Bu allaqachon mulotoqning boshqa ishtirokchisi - morfologiya yoki yozuvchining pozitsiyasiga bog'liq o'rganiladi.

Leksikologiya tishunoslikning so'zni til lug'ati (leksika) va tilning butun leksik tizimi (leksika) birligi sifatida o'rganadigan bo'libdir.